



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarni shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizimidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K 378

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Nasibaxon Jo'rayevna, Madmarova Gulchehra Qodirovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyati shundaki, uni to'liq algoritmlashtirish yoki qat'iy qoidalarga solish deyarli mumkin emas. Garchi o'qituvchi ma'lum metodlar va ko'nikmalarga ega bo'lsa-da, u ularni har safar o'zgaruvchan, noodatiy ta'limiy vaziyatlarda qo'llaydi. Aynan shu holat pedagogik izlanish va yangilik yaratishning tabiiy zaruratini yuzaga keltirib, kasbiy-pedagogik ijodkorlikning mohiyatini belgilaydi. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar:

ijodiylik, pedagogik ijodkorlik, individuallik, tanqidiy tafakkur, ijodiy tasavvur.

Аннотация.

Психологическая особенность педагогической деятельности заключается в том, что её практически невозможно полностью алгоритмизировать или строго регламентировать правилами. Хотя учитель обладает определёнными методами и навыками, он каждый раз применяет их в изменяющихся, нестандартных образовательных ситуациях. Именно это обстоятельство порождает естественную необходимость педагогического поиска и создания новшеств, определяя сущность профессионально-педагогического творчества. В данной статье представлены сведения о педагогико-психологических особенностях развития профессионально-педагогического творчества у будущих учителей.

Ключевые слова:

творчество, педагогическое творчество, индивидуальность, критическое мышление, творческое воображение.

Abstract.

The psychological nature of pedagogical activity is such that it is almost impossible to fully algorithmize or impose strict rules on it. Although the teacher has certain methods and skills, he always uses them in changing, unusual educational situations. It is this situation that creates a natural need for pedagogical research and innovation, which determines the essence of professional and pedagogical creativity. This article provides information on the pedagogical and psychological features of the development of professional and pedagogical creativity in future teachers.

Keywords:

creativity, pedagogical creativity, individuality, original thinking, critical thinking, creative imagination.

Pedagogik ijodkorlikni baholashda tajribaning qaysi biri "ijodiy", qaysi biri "noijodiy" ekanini qat'iy farqlash qiyin. Chunki ijodiylik – bu o'qituvchining faqat yangi metod topishida emas, balki mavjud tajribani o'ziga xos tarzda qayta talqin qilish, yangi sharoitda samarali qo'llay olish qobiliyatida ham namoyon bo'ladi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili pedagogik ijodkorlikning quyidagi muhim sifatlarini aniqlash imkonini beradi:

- mavjud tajribani yangi sharoitlarda samarali qo'llay olish;
- kutilmagan holatlarda moslashuvchanlikni saqlash;
- intuitiv qarorlarni ilmiy asoslash;
- yaqin va uzoq istiqbolni aniqlay olish;
- muammolarni yechishda bir nechta yo'lni ko'ra olish;
- g'oyalarni amaliy sharoitga mos ravishda rivojlantirish;
- ilg'or tajribalarni ijodiy o'zlashtirish va ularni transformatsiya qilish.

Pedagogik ijodkorlik, avvalo, o'qituvchining o'z ijodiy individualligini anglashini talab etadi. Har bir pedagogning shaxsiy-psixologik xususiyatlari, temperament, fikrlash stili, emotsional javoblari va intuitiv qarashlari uning pedagogik faoliyatida betakror uslubni shakllantiradi. Shu bois ta'lim jarayonida ikki o'qituvchi bir xil sharoitda ishlasa ham, ularning yondashuvi, o'quvchilarga ta'siri va natijalari turlicha bo'ladi.

O'qituvchining ijodiy individualligi – bu uning kasbiy-ijodiy imkoniyatlari, intellektual salohiyati va shaxsiy qadriyatlarining birligi natijasida yuzaga keluvchi yaxlit psixologik tizimdir. Bunda shaxsning ijodga bo'lgan munosabati, faoliyatdagi mahsuldorligi va o'z ijodiy faoliyatining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini anglash darajasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Psixologiya fanida individuallik shaxsning tarbiyalanishi lozim bo'lgan sifat sifatida talqin qilinadi. Har bir insonda takrorlanmas individual xususiyatlarning rivojlanishi, ayniqsa bo'lajak o'qituvchilarda, kasbiy tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismidir. Shu bois ijodiy individuallikni shakllantirish nafaqat pedagogik mahorat ko'rsatkichi, balki o'qituvchilik kasbining ichki mazmunini ifodalovchi jarayondir.

O'qituvchini ijodiy faoliyatga tayyorlash zarurati jamiyat rivojlanishining obyektiv talablari bilan bir qatorda, pedagogik mehnatning o'z tabiatidan ham kelib chiqadi. O'qituvchi o'z faoliyatida optimal samaradorlikka faqat shaxsiy xususiyatlarini chuqur anglab, ularni faoliyat uslubi bilan uyg'unlashtirgandagina erisha oladi.

Pedagogik individuallik – bu o'qituvchining o'zini-o'zi boshqaruvchi tizimi bo'lib, u turli sharoitlarda eng maqbul usulni tanlash, qaror qabul qilish va o'z faoliyatini moslashtirish qobiliyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, individuallik insonning ichki resurslarini to'liq ishga soladi, bu esa o'z navbatida yuqori natijalarga va shaxsiy o'sishga olib keladi.

Ijodiy individuallikning namoyon bo'lishi o'qituvchining pedagogik qadriyatlari, ijodiy tafakkur uslubi, muloqot madaniyati, intuitiv sezgirligi hamda emotsional barqarorligi bilan belgilanadi. Shaxsning ichki dunyosi va uning tashqi ifodasi o'zaro uyg'unlashganda, pedagogik faoliyat chinakam ijodiy jarayonga aylanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy individuallikning shakllanishi ikki asosiy yo'nalishda kechadi:

1. Ilg'or pedagogik tajribani o'zlashtirish va qabul qilish – mavjud tajribani anglash, baholash va o'z faoliyat sharoitiga moslashtirish;
2. O'zlashtirilgan tajribani ijodiy qayta ishlash – mavjud bilim va usullarni transformatsiya qilish, yangi yechim va yondashuvlar ishlab chiqish.

Aynan ikkinchi yo'nalish "ijodiy qayta ishlash" pedagogning shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'qituvchi nafaqat o'z tajribasini boyitadi, balki "o'zini qayta yaratish", ya'ni insoniy mohiyatni ta'lim jarayonida davom ettirish imkoniga ega bo'ladi. Natijada, ijodiy individuallik o'qituvchi faoliyatining eng yuqori darajasini ifodalaydi. U o'z kasbiy mahoratini, tafakkur erkinligini, emotsional sezgirligini va innovatsion tafakkurini uyg'unlashtirib, ta'lim jarayonini samarali boshqaradi.

Psixologlar insonning noodatiy, yangi va ijodiy masalalarni qanday hal qilishi masalasini o'rganish uchun ko'plab izlanishlar olib borishgan. Shunga qaramay, bugungi kungacha inson ongida ijodiy yechim qanday shakllanishi to'g'risida yagona, aniq javob yo'q. Zamonaviy psixologiya faqat alohida kuzatuvlar va eksperimental natijalarga tayangan holda bu jarayonning ayrim bosqichlarini, shuningdek, ijodkorlikka yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni tasvirlab bera oladi.

Ijodiy fikrlash mohiyatini ilmiy asosda tushuntirishga dastlabki urinishlardan birini amerikalik psixolog J.Gilford amalga oshirgan. Uning kognitiv ijodkorlik haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, ijodiy tafakkur darajasi to'rt asosiy sifatning ustunligi bilan belgilanadi [1]:

1. Original fikrlash va yangilikka intilish – inson mavjud holatlarda ham noodatiy yechim topishga moyil bo'ladi.

2. Semantik moslashuvchanlik – muayyan narsani yangi nuqtai nazardan ko'ra bilish, uni boshqacha tarzda qo'llash imkoniyatlarini ilg'ay olish qobiliyati.

3. Obrazli moslashuvchanlik – tasavvur orqali obyektning yangicha qiyofada idrok etish, yashirin jihatlarini anglash layoqati.

4. Semantik spontanik moslashuvchanlik – aniq sharoit bo'lmasa ham, yangi g'oyalar ishlab chiqish qobiliyati.

Gilfordning fikricha, aynan shu to'rt sifat inson tafakkurining ijodiy xususiyatlarini belgilab beradi.

Tadqiqotchilar G.Lindsay, K.Xall va R.Tompson ijodiy qobiliyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga nima to'sqinlik qilishini aniqlashga urinib, shunday xulosaga kelishgan: ijodkorlik faqat aqliy layoqatlar darajasiga emas, balki shaxsiy fazilatlar tizimiga ham bog'liq. Ularning fikricha, ijodiy o'sishni cheklovchi omillar quyidagilardir [2]:

– konformizmga moyillik – boshqalar fikriga to'liq ergashish, ommaviy fikrdan chetga chiqmaslik istagi;

– tanqid yoki kulgidan qo'rqish – o'z g'oyalarini ifoda etishda ishonchsizlik;

– boshqalarni tanqid qilishdan cho'chish – ijtimoiy cheklovlardan qo'rquv;

– o'z fikrlarini ortiqcha qadrlash – shaxsning o'z g'oyalarini mutlaq to'g'ri deb bilishi;

– tafakkurning ikki qutbli tabiati – ya'ni tanqidiy va ijodiy fikrlash o'rtasidagi ichki ziddiyat.

Tanqidiy tafakkur kamchiliklarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, ijodiy tafakkur yangilik yaratishga intiladi. Ularning uyg'unlashmaganligi ijodiy g'oyalarning mustahkam shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Mashhur nemis psixologi M.Vertgeymer laboratoriya sharoitida olib borgan tajribalari asosida ijodiy fikrlash jarayonini besh bosqichda tavsiflagan [3]:

1. Muammoning paydo bo'lishi bosqichi. Insonda ijodiy faoliyatga ichki ehtiyoj va intilish hissi uyg'onadi.

2. Muammoni idrok etish va tahlil qilish bosqichi. Shaxs vaziyatni yaxlit anglaydi, asosiy ziddiyatni aniqlaydi va uni hal etish yo'llarini izlay boshlaydi.

3. Yechim izlash bosqichi. Bu jarayon ko'pincha hissiy jihatdan og'ir kechadi. Muammo ongda doimiy mavjud bo'ladi, ong osti darajasida esa yangi g'oyalar vujudga keladi.

4. "Ilhom" bosqichi. To'satdan paydo bo'lgan yangi g'oya yoki tamoyil yechim sifatida shakllanadi. Bu bosqich ko'pincha shaxs uchun sirli va kutilmagan kechadi.

5. Texnik amalga oshirish bosqichi. Paydo bo'lgan g'oya ijtimoiy talab va normativlarga muvofiq tarzda aniqlashtiriladi, sinovdan o'tkaziladi va takomillashtiriladi.

Vertgeymer nazariyasi shuni ko'rsatadiki, ijodiy tafakkur – bu bir martalik hodisa emas, balki psixik jarayonlarning dinamik tizimidir. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda ushbu bosqichlarni hisobga olish, ularning o'quv va kasbiy faoliyatida tafakkur faolligini maksimal darajada namoyon etishga yordam beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijodkorlik inson shaxsiyatining tabiiy imkoniyati bo'lib, uni rivojlantirish uchun maqsadga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik sharoit zarur. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-ijodiy tafakkurni shakllantirish ularning mustaqil qaror qabul qilish, yangi didaktik yechimlar topish va pedagogik faoliyatni takomillashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Bizningcha, ijodkorlik – bu pedagog shaxsining kasbiy yetukligi va o'zini anglash darajasini belgilovchi eng muhim psixologik ko'rsatkichlardan biridir.

Ijodiy jarayonda tasavvurning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Tasavvur – bu insonning ijodiy faoliyatida muhim psixologik mexanizm bo'lib, u faoliyat natijasining g'oyaviy-obrazli modelini yaratish, shuningdek, muammoli vaziyatda noaniqlik sharoitida xatti-harakat dasturini tuzish imkonini beradi. Tasavvur ijodkorlikning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, inson tafakkuri, hissiyoti va irodasini yagona ijodiy harakatga birlashtiradi. Shu bois ijodiy jarayon barcha psixik jarayonlar, xususan, idrok, tafakkur, xotira va tasavvur bilan uzviy bog'liq holda kechadi.

Shaxsning ijodiy imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- bilim va tajriba zaxirasi – inson faqat ilgari egallagan bilimlari asosida yangi g'oyalar ishlab chiqadi;
- shaxsiy qobiliyat va iste'dod – intellektual moslashuvchanlik, assotsiativ tafakkur va intuitiv fikrlash qobiliyati;
- maqsadga yo'naltirilganlik – o'z g'oyasini hayotga tatbiq etishga intilish, ichki motivatsiya;
- emotsional holat – ijodiy faoliyatga ijobiy hissiy kechinmalar hamroh bo'lishi zarur.

Demak, ijodkorlikning muvaffaqiyatli kechishi insonning bilim darajasi, motivatsiyasi, hissiy muhit va irodaviy mustahkamligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tafakkur va tasavvur o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik haqida ko'plab psixologlar – L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, Z.M.Novlyanskaya, V.E.Chudnovskaya, L.V.Zankov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ularning fikriga ko'ra, "tasavvur – bu inson ongining ikki muhim psixologik xususiyatini ifodalovchi jarayon [4]:

a) Obrazni yaratish (ya'ni, hozir mavjud bo'lmagan holatni ongda gavdalantirish);

b) Mazkur obrazlarni ongli boshqarish, ya'ni inson irodasi orqali yangi obrazlarni yaratish yoki ularni o'zgartirish".

Tasavvur shaxs ongida hozir mavjud bo'lmagan, lekin avvalgi tajribaga asoslangan reallikning yangi shaklini aks ettiradi. Shu ma'noda, tasavvur inson ongining rivojlanishida, shaxsning o'zini anglashida va yangi pedagogik g'oyalarni yaratishda asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Inson ongida tasodifiy, yuzaki belgilar emas, balki narsa-hodisalarning mohiyatli, umumlashgan xususiyatlari aks etadi. Shuning uchun ijodkorlik faoliyati inson ongining yaratuvchan xususiyatini namoyon etadi. Odam nafaqat tashqi olamni, balki o'z ichki dunyosini, his-tuyg'ularini, obrazlarini va fikrlarini ham anglaydi. Shu bois ijod – bu shaxsning o'zini bilish va o'z ongini rivojlantirish vositasidir. Inson o'z ijodiy mahsulotlari orqali o'z psixologiyasini, ichki dunyosini "ko'ra" oladi.

Hayvonlar faoliyati tabiiy ehtiyojlardan kelib chiqsa, inson faoliyati madaniy-tarixiy tajribaga tayanadi. Shu sababli inson biror narsani tasavvur qilayotganda uni hech qachon butunlay yangidan kashf etmaydi – u ilgari mavjud bo'lgan tajriba unsurlarini qayta kombinatsiya qiladi. Demak, tasavvur – bu insonning amaliy faoliyat tajribasining ijodiy aksidir.

Psixologlarning ta'kidlashicha, tasavvur bu mavjud obrazlarni o'zgartirish va shu asosda yangilarini yaratish jarayonidir. Shu sababli "tasavvur qilish" aslida "qayta yaratish"dir. Haqiqiy bilish ham tasavvursiz, ya'ni reallikdan ozgina bo'lsa ham chekinishsiz amalga oshmaydi. Tasavvur insonni mavjud holatdan yuqoriroq bosqichga olib chiqadi, uni yangi ilmiy, badiiy yoki pedagogik yechimlar yaratishga undaydi.

Bugungi ilmiy dunyoda sun'iy intellekt imkoniyatlari haqida ko'plab bahslar mavjud. Shunga qaramay, sun'iy intellekt inson tasavvurining o'rnini bosa olmaydi. Chunki tasavvur inson ongining eng murakkab, sirli va subyektiv jihati bo'lib, uni o'lchash yoki algoritmik tarzda yaratish mumkin emas. Tasavvur shaxsning tajribasi, hissiyoti va irodasining sintezidan kelib chiqadi – bu esa faqat insonga xos sifatdir.

Tasavvurning rivojlanishi bevosita nutqning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Nutq bolaning predmet haqidagi bevosita hissiy taassurotlaridan xoli bo'lishiga, u ilgari ko'rmagan narsalarni ham so'z orqali tasavvur etish va ular haqida fikr yuritishiga imkon yaratadi. Shunday qilib, so'z orqali bola mavjud bo'lmagan yoki reallikda aynan shunday shaklda uchramaydigan obrazlarni ifodalay oladi. Bu holat unga til vositasida hissiy tajriba doirasida erkin harakat qilish, fikrni so'z orqali mustaqil ifodalash imkonini beradi.

Na faqat nutq, balki bolaning butun hayotiy tajribasi, xususan, maktabdagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyati ham tasavvurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Maktab yillarida bolada orzu qilish, fantaziya qilish, xayoliy obrazlar yaratish kabi dastlabki psixik jarayonlar

shakllanadi. Bu jarayonlar real tafakkurga tayanmagan holda, ammo ongli tarzda aqliy konstruksiyalarni yaratish imkonini beradi.

L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, oliy psixik funksiyalarning shakllanishi bolalarning nutq faoliyati, ularning atrofdagilar bilan muloqot qilish tajribasi va ijtimoiy hamkorlik jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Demak, bola tasavvurining rivojlanishi uning ijtimoiy-psixologik tajribasining boyishiga, ya'ni jamoadagi nutqiy faoliyatga tayanadi.

Tasavvur faoliyati inson hissiyotlari bilan uzviy bog'liq. Ko'pincha inson ongida paydo bo'ladigan tasavvurlar mantiqan real bo'lmasligi mumkin, biroq ular hissiy jihatdan real, ya'ni emotsional ma'noda haqiqiydir. Bu holat shuni ko'rsatadiki, tasavvur faoliyati emotsional ehtiyojlar tomonidan boshqariladi va ular bilan uyg'un holda rivojlanadi. Shu sababli ijodiy faoliyatda hissiy holatning barqarorligi va ijobiy yo'nalganligi juda muhimdir.

Ijodiy fikrlashning tuzilishi masalasida J.Gilford tomonidan ilgari surilgan model alohida ahamiyat kasb etadi. U tafakkurning ikki asosiy turini farqlaydi:

1. Konvergent tafakkur – bu mantiqiy, izchil, yagona yechimga yo'naltirilgan fikrlash turi bo'lib, analiz va sintez jarayonlariga tayanadi;

2. Divergent tafakkur – bu intuitiv, ko'p yo'nalishli, bir vaqtning o'zida turli g'oyalar oqimini hosil qiluvchi tafakkur turi.

Mazkur ikki turdagi fikrlashning o'zaro integratsiyasi inson tafakkurining ijodiy imkoniyatlarini belgilaydi. U quyidagi psixologik sifatlarda ifodalanadi:

1. Fikrning tezligi – qisqa vaqt ichida ko'plab g'oyalarni ilgari surish qobiliyati;

2. Moslashuvchanlik – turli yo'nalishdagi, har xil tabiatga ega g'oyalarni ishlab chiqish layoqati;

3. Originallik – noodatiy yechimlarni topish, fikr mahsulini mukammal shaklda ifodalash qobiliyati.

Keltirilgan tahlillar, nazariyalar, psixologik qarashlarga tayanib tasavvur, nutq, hissiyot va tafakkur – barchasi birgalikda insonning ijodkorlik faoliyatini tashkil etuvchi psixologik tizimni hosil qilishi kelib chiqadi. Bo'lajak o'qituvchilarda bu tizimni rivojlantirish, ularning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ijodkor o'qituvchi o'z nutqi orqali nafaqat o'quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularning tasavvurini, orzularini, emotsional sezgirligini ham faollashtiradi. Shunday qilib, ijodiy tasavvur – o'qituvchi shaxsining ruhiy yetukligini va pedagogik mahoratini ifodalovchi asosiy mezonlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Григорьева О.А. Особенности развития творческого воображения старших дошкольников. Молодой ученый. - 2014. - №20. - с. 568-569.

2. Лифинцева Н.И. Формирование профессионально-педагогической культуры учителя. – М.; Курск, 2000.

3. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактического исследования – М.: Наука, 1982. – 105с.

4. Дружинин В. Н. Деятельность, подражание, творчество. Школьный психолог. – 2001. - № 14// <http://psy.1september.ru/article.php?ID=200101406>

